

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 5/8

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/8 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Намазова Умида Нормуродовна</i> ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И BIOTEKHOLOGIY (1929-1945 ГОДЫ).....	10-15
<i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ .....	16-21
<i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> “ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ХУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ .....	22-27
<i>Шаимкулов Азамат Холмуратович</i> ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ .....	28-38
<i>Муродов Ҳалим Салимович</i> ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР .....	39-46
<i>Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН .....	47-51
<i>Shonazarova Nargiza</i> TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR .....	52-57
<i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i> O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI .....	58-64
<i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i> O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI .....	65-70
<i>Yunusxo’jayev Habibulla Zafar g’o’li</i> SHARQDA KUCHLI IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI TARIXI .....	71-75
<i>Нарбеков Абдикамил</i> НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ .....	76-80
<i>Alimova G‘unchaxon Baxadirovna</i> JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA .....	81-85
<i>Jumanazarova Fotima</i> XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	68-93
<b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i> PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW .....	94-100

<i>Hamrayev Amirzoda</i> ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKIOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	101-109
<i>Xaitbobaeva Nigora Bakmatatovna</i> T'UQIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANIISH B'YIYCHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	110-119
<i>Xalilov Qahramon Qurbonboyevich</i> MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERINI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI.....	120-132
<i>Maxmudov Tursunpulat Davronovich</i> INVESTITSIYA MANBALARINING MINTAQAGA IKTISODIYETIGA TA'BSIRI .....	133-144
<i>Ishchanova Salomat</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI.....	145-150
<i>Muydinova Zilola Voxid qizi</i> CHEGARA BOJXONA POSTLARI FAOLIYATIDA "AVTOMATLASHTIIRILGAN I'ULOVCHI XARAKATI" MOBIL ILOVASINI JORIY ETISH ORQALI IKTISODIY TAHLILNI TAKOMILLASHTIIRISH.....	151-158
<i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i> TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	159-164
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Saidova Kamola Uskanbaevna</i> ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ .....	165-173
<i>Omonturdiyev Orzu G'afforovich</i> INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI .....	174-179
<i>Ochilova Guzаль Aralovna</i> YUKSAK MA'NAVIYAT-MANFAATLAR BIRLIGINI TA'MINLASHNING MU'XIM OMILI.....	180-185
<i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i> MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI.....	186-192
<i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i> AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK.....	193-198
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	199-202
<i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i> MEHRSIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQUVCHI OMILLAR .....	203-212
<i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i> DINIY MANBALARDA IJTIMOIIY HAMKORLIK O'OYALARI .....	213-218
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI .....	219-224

<i>Dehqonov Behzod Baxtityorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI .....	225-230
<i>Abdullayeva Firuza Sharipovna</i> NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI .....	231-236
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR .....	237-243
<i>Ибрагимов Солижон Эргашович</i> АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ.....	244-251
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayena</i> BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI.....	252-257
<i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich</i> DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE .....	258-265
<i>Hamroyeva Sharifa Shukur qizi</i> TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA) .....	266-271
<i>Olimova Gulfiza Muradullayevna</i> BADIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI.....	272-281
<i>Айниддинов Иқрориддин Шарифович</i> АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ .....	282-287
<i>Turaeva Dilfuza Daminovna</i> O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	288-295
<i>Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna</i> LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI .....	296-305
<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli</i> LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES .....	306-311
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZELOGIK BIRLIK LARNING KOMMUNIKATIV TA'SIRI XUSUSIDA .....	312-317
<i>Шамақсудова Саодат Хидоятовна</i> МАССМЕДИА АСПЕКТНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР.....	318-324
<i>Шатова Ирина Юрьевна</i> ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	325-330
<i>Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna</i> FRAZELOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI .....	331-335



<i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> KO'P MA'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI .....	336-340
<i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i> МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	341-347
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI .....	348-352
<i>Aminova Dilnoza Hikmatullayevna</i> THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY .....	353-358
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи</i> ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ .....	359-365
<i>Mamatallyev To'liqin Xushmamat o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI .....	366-378
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Saidov Jur'at Sodirovich</i> МАКТАВГАСНА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	379-384
<i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i> ТЕХНИК ОЛИЙ О'QUV YURTLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI .....	385-390
<i>Tadjixodjaeva Эльвира Рашидовна</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ .....	391-396
<i>Тўрахонова Барно Турсунбой қизи</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ .....	397-406
<i>Ashurova Sitora Erkinovna</i> USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION .....	407-412
<i>Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна</i> ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида).....	413-421
<i>Xamirayev Rustam Abdirazakovich</i> VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH .....	422-426
<i>Хашимова Масуда Камилжановна</i> КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК .....	427-435
<i>Бердикулова Насиба Эркинжоновна</i> СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ .....	436-442



*Saidnazarova Gulshan Bolta qizi*

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO  
SIFATIDA .....443-448

07.00.00-Тарих фанлари

**Shonazarova Nargiza**  
Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti  
mustaqil ilmiy tadqiqotchisi

### **TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR**

**Аннотасија.** Мақоллада Toshkent shahrida “Obod mahalla” davlat dasturini amalga oshirish, uni yanada rivojlantirish, mahallalarni obodonlashtirish, aholi turmush tarzini yuksaltirish, xizmat ko’rsatish va servis sohalarini taraqqiy ettirish, tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatini yaxshilash, aholi bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar yoritilgan. Unda mahallalarga davlat tomonidan qaratilayotgan e’tibor, shahar mahallalarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, uni samarali amalga oshirish yuzasidan qo’lga kiritilgan yutuqlar va bu boradagi ayrim muammolar hamda kamchiliklar tahlil qilingan.

**Калит so’zlar:** Toshkent shahri, mahalla, aholi, turmush tarzi, ijtimoiy soha, rais, bandlik, tadbirkorlik, tinchlik va osoyishtalik, turar-joy, strategiY.

**Shonazarova Nargiza**  
Researcher at the Faculty of History,  
TSPU named after Nizami

### **SOME REFLECTIONS ABOUT THE “OBOD MAHALLA” PROGRAM AND ITS IMPLEMENTATION IN TASHKENT CITY**

**Abstract.** The article describes the implementation of the state program “Rim of Mahalla” in the mahallas of the city of Tashkent, its further development, improvement of mahallas, improvement of the lifestyle of the population, development of the service sector. It addresses issues of improving the activities of mahallas, business structures and ensuring employment of the population. The state’s attention to mahallas, the development of small businesses and private entrepreneurship in the city’s mahallas, achievements in its effective implementation, as well as some problems and shortcomings in this direction are also analyzed.

**Key words:** Tashkent city, mahalla, population, lifestyle, social sphere, chairman, employment, entrepreneurship, peace and tranquility, housing, strategy

**Шоназарова Наргиза**  
Научный сотрудник  
Исторического факультета  
ТГПУ им Низами

### **НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ПРОГРАММЕ «ОБОД МАХАЛЛА» И ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ В ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ**

**Аннотация.** В статье описана реализация государственной программы «Обод Махалля» в городе Ташкенте ее дальнейшее развитие, благоустройство махаллей, улучшение образа жизни населения, развитие сферы услуг и сервиса. В нём раскрыты вопросы улучшения деятельности махаллей, бизнес-структур и обеспечение занятости населения. Также анализируется внимание государства к махаллям, развитию малого бизнеса и частного предпринимательства, достижения в его эффективной реализации, некоторые проблемы и недостатки в этом направлении.

**Ключевые слова:** город Ташкент, махалла, население, образ жизни, социальная сфера, председатель, занятость, предпринимательство, мир и спокойствие, жилье, стратегия.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N07>

Bugun mamlakat obodligi mahallalar taraqqiyotini ta'minlashga, ularni zamonaviy arxitektura talablari asosida qayta qurishga, ijtimoiy infratuzilmalarni va kommunikatsiya tizimlarini keng ko'lamda barpo etishga, aholi farovonligini yuksaltirish hamda ular uchun munosib turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi PF-5467-sonli "Obod mahalla dasturi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi va u "Obod qishloq" dasturi doirasida boshlangan xayrli ishlarning mahallalarda keng ko'lamda davom etishiga asos bo'ldi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi PQ-3812-sonli "Obod mahalla" dasturining asosiy parametrlarini tasdiqlash va ularning ijrosini ta'minlash masalalari to'g'risida"gi qarorida "Obod mahalla" dasturining asosiy parametrlari, moliyalashtirish hajmi va manbalari tasdiqlandi. Qarorga ko'ra mamlakatimiz shaharlarida jami 220 ta mahalladan 275 526 xonadon va 980,4 ming kishi yashaydigan hududni qamrab olgan yirik dastur shakllantirildi va shu maqsadlarga 3 054,3 milliard so'm ajratildi [1. B. 18].

Agar ushbu o'zgarishlarni Toshkent shahri misolida olib qaralsa, o'tgan qisqa davr mobaynida Toshkent shahri mahallalarida "Obod mahalla" dasturi doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- har bir mahallada o'z ichiga mahalla guzari, tibbiyot maskanlari negizida qulay va arzon dorixonalar, zarur maishiy xizmat va servis shoxobchalari, bolalar maydonchasi hamda kichik istirohat bog'ini qamrab oladigan "Mahalla markazlari" barpo etildi;

- ko'p xonadonli va yakka tartibdagi yangi uy-joylar qurilib, mavjudlari ta'mirlandi va ularga tutashgan hududlar obodonlashtirildi, piyodalar yo'laklari, irrigatsiya va sug'orish tizimlari hamda chiqindi yig'ish maydonchalari barpo etildi;

- mahalla ichki avtomobil yo'llari va transport kommunikatsiya tizimlari ta'mirlandi, ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tarmoqlari yaxshilandi, elektr energiyasi va gaz ta'minotini yaxshilash, issiqlik tarmoqlarini modernizatsiya qilish ishlari amalga oshirildi;

- mahalla hududidagi maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, tibbiyot muassasalari, zamonaviy sport inshootlari va boshqa ijtimoiy soha obyektlari yangidan qurildi, mavjudlari rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi;

- bozor infratuzilmasi obyektlari, jumladan, hammom, savdo va maishiy xizmat majmualari qurilib ishga tushirildi;

- mahalla hududlarida bo'sh turgan yer maydonlarini yoki foydalanilmasdan turgan bino va inshootlarni tadbirkor va hunarmandlarga "nol" qiymatda berish asosida mikro sanoat zonalari va hunarmandchilik markazlari tashkil etildi va boshqalar [2. B. 19].

Yana ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent shahrida 2018 yilda "Obod mahalla" dasturi doirasida umumiy maydoni 72 946 m<sup>2</sup> bo'lgan 88 ta mahalla hududida 20 920 m<sup>2</sup> ga teng yo'laklar va ichki yo'llar asfaltlangan, 30 615 m<sup>2</sup> hajmida tomlar yangilangan, 726 ta uylarga kirish yo'laklarida ko'rsatkichlar o'rnatilgan, 197 ta ko'cha fonarlari o'rnatilgan, 2 905 m<sup>2</sup> ga teng bolalar maydonchalari va 2 250 m<sup>2</sup> hajmida futbol maydonlari qurilgan. Natijada 56 000 kishining yashash sharoitlari yaxshilangan [3. B. 19].

“Obod mahalla” dasturi doirasida aholi ijtimoiy-maishiy va boshqa muammolarni yechishda asosan o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqishi, qiyin holatga tushib qolgan odamlar ziddiyatli muammolarni bartaraf etishda o‘zaro yelkadoshlikni to‘liq his etib, ular nafaqat davlatning, balki bir-birining ko‘magiga tayanishlari zarur. Bunday natija odamlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlari qoniqarli tarzda tarkib topishiga xizmat qilib, zarur xulosalar chiqarishda muhim o‘ringa ega. Shunday sharoitda mahallalar aholisi davlat tomonidan moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda.

Bu borada faol mahalla oqsoqollarining tashabbuskorligi va tashkilotchiligi bois, Toshkent shahrida mahallalarida talay ishlar qilindi. Faol mahalla oqsoqollaridan 519 nafarining har biriga 50 mln so‘mdan (jami 26 mlrd so‘m) ajratildi. Eng namunali deb topilgan 50 ta MFY rahbariga “Spark” avtomobili homiylik hisobidan sovg‘a sifatida berilish tartibi yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston tarixida ilk bor kuzatilayotgan fuqarolar yig‘inlari raislariga avtomobil va boshqa imtiyozlar berishning “Toshkent tajribasi”ni qolgan viloyatlarda ham joriy etish fuqarolar yig‘inlari faoliyati samaradorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi [4. B. 70.].

2021 yil birinchi yarim yilligida “Obod mahalla” davlat dasturiga muvofiq fuqarolarning murojaati bilan ishlashda aholiga qulayliklar yaratish maqsadida 1146 qisqa raqamli “Sall-centre” markazi ishga tushirildi. Shu yilning 6 oyi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan 45 956 ta murojaat qabul qilinib, mazkur murojaatlarning 25 721 tasi qanoatlantirildi, 15 102 tasiga tushuntirish berilgan. Aholi uchun qulayliklar yaratish maqsadida respublikada 83 ta yangi mahalla tashkil etilgan. Hududlardagi “Ayollar daftari”ga kiritilgan 100 nafar xotin-qizlar Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazida soch turmaklash mahoratlari va go‘zallik salonini yuritish bo‘yicha bepul o‘qitilgan, noturar joylarda istiqomat qilayotgan 899 nafar xotin-qizlarga 1 mlrd 669 mln 815 ming so‘m turar joy ijara kompensatsiyasi to‘lab berildi, 854 nafar xotin-qizlarga arzon uy-joylar olishlari uchun boshlang‘ich badallari to‘lab berilganligi mazkur dastur ijrosi Toshkent shahri mahallalarida reja asosida amalga oshirilayotganligini tasdiqlaydi [5.].

Bu borada yana shuni qayd etish lozimki, BMT Taraqqiyot dasturi, Toshkent shahar “Mehr ko‘zda” markazi, ICT Academy o‘quv markazi bilan hamkorlikda nutqida va eshitishida nuqsoni bo‘lgan xotin-qizlarni Yaponiya elchixonasining grant mablag‘lari hisobidan o‘qitilgan bo‘lsa, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) tomonidan Nukus shahri, viloyatlar markazlari hamda Toshkent shahrida joylashgan 14 ta reabilitatsiya markazlari uchun zarur bo‘lgan umumiy qiymati 569 430 ming so‘mlik moddiy texnika buyumlari (konditsioner, printer, proyektor) va xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan tarqatma materiallar (buklet, poster, eslatma) taqdim etilgan [6.].

Ayniqsa mahallalarda huquq-tartibotni yanada mustahkamlash va jinoyatchilikning yangi ko‘rinishlariga qarshi kurashish zarurati mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olishni talab etdi. Bu borada 2021 yil 29 noyabr kuni O‘zbekiston Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. Hujjatga ko‘ra, 2022-2025 yillarda O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Strategiya mamlakatda jamoat xavfsizligini ta‘minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha huquqiy, uslubiy, ilmiy, tashkiliy choralarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirishni o‘z ichiga olgan.

Strategiyada 6 ta istiqbolli yo'nalish bo'yicha 96 ta sohaviy tadbirlar, uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi»da esa 30 ta aniq choralar nazarda tutildi. Choralar jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni oldini olish, yo'l harakati va yong'in xavfsizligini ta'minlash, sohani raqamlashtirish, sog'liqni saqlash va mahallabay ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Strategiyada belgilangan chora-tadbirlarning samarali bajarilishini tashkil etish uchun ichki ishlar vaziri shaxsan mas'ul hisoblanadi. Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti esa Strategiyada belgilangan vazifalarning sifatli ijro etilishini ta'minlash maqsadida Milliy gvardiya va boshqa mutasaddi idoralar bilan birgalikda har yili qo'shma dastur va yo'l xaritalarini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritadi va ularning ijrosini muvofiqlashtiradi. Strategiya jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Unda belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida fuqarolarning huquqlari va erkinliklarining qonunga xilof tajovuzlardan himoyalanganlik holati sifat jihatidan yuqori darajaga ko'tariladi [7].

2022-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi (keyingi o'rinlarda - Strategiya)ning maqsadi mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha huquqiy, uslubiy, ilmiy, tashkiliy choralarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirishdan iborat.

“Obod mahalla” dasturi doirasida ijtimoiy himoyatalab oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi xayrli ishlarda "Mahalla", "Nuroniy" jamg'armalari bilan bir qatorda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ham faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, Federatsiya Prezidentimizning 2017 yil 12 sentabrdagi "Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida respublikamizning barcha hududlaridagi kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy-maishiy ahvolini o'rganib chiqdi. O'rganish natijalariga ko'ra, uy-joyga, maishiy texnika jihozlariga extiyoji bor, yashash joylarini ta'mirlash, tibbiy xizmatga muhtoj oilalar aniqlanib manzilli dasturlar ishlab chikildi. Shu asosda 2017 yilda respublika bo'yicha 22 ming 200 xonadonga kundalik turmushda zarur bo'lgan maishiy texnika jihozlari, kam ta'minlangan oilalardagi 1200 nafar bemorga 4 million sumdan, 2200 oilaga uy-joylarini ta'mirlash uchun 10 million so'mdan moddiy yordam ko'rsatildi, yana 400 oilaning uy-joyga bulgan extiyojini qondirish bo'yicha ishlar olib borilmokda.

Bunday xayrli ishlar natijasida 2018-2020 yillar mobaynida birgina Sirg'ali tumanida 460 ta ko'p qavatli uy-joy foydalanishga topshirildi. Shu davrda bu yerga 100 mingdan ziyod oila ko'chib kelib, jami aholi 276 ming nafardan oshgan. 2020 yil 29 mayda davlat rahbari poytaxt tarkibida Yangi hayot tumanini tashkil etish tashabbusi bilan chiqqan edi. Unga muvofiq Sirg'ali tumanidan 1752 gektar, Bektemir tumanidan 267 gektar, Zangiotadan qariyib 328 gektar, Quyi Chirchiqdan 129 gektar, Yangi yo'l tumanidan 263 gektar, O'rta Chirchiq tumanidan 1346 gektar yer ajratib, 4085 kegtar yerda Yangi hayot tumanini tashkil etish belgilandi [8. №164 (7666)].

Toshkent shahrida 110 nafar ehtiyojmand fuqarolarning uy-joylari ta'mirlab berildi. 1221 nafar kam ta'minlangan oilaga maishiy texnika jihozlari sovg'a qilindi. 70 nafar bemorga sog'lig'ini tiklash uchun moddiy yordam berildi. Mirobod tumanida ham 91 nafar ehtiyojmand oilalarga kir yuvish mashinalari, changyutgichlar, gaz plitalari, kichik pechlar va boshqalar sovg'a qilindi [9. 2018, 10/01.]. 2021 yilda uy-joylarni sifatli va muddatida qurish uchun barcha

zarur chora-tadbirlar ko'ridi. Jumladan, 45 ming xonadonli uylar uchun 7 xil namunadagi energiya tejamkor loyihalar ishlab chiqildi. Aholi punktlaridagi 175 ta yaxlit massiv o'rganilib, tanlab olindi. Bu massivlarda 70 tagacha uyni joylashtirish hamda aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida ijtimoiy va sanoat obektlari barpo etiladi [10. № 73.]

2018 yilning o'zida Toshkent shahri mahallalarida "Obod mahalla" tushunchasining mazmun-mohiyati to'g'risida, mahallalarga berilgan mas'uliyatli vazifalarni kengroq tushuntirish maqsadida 1369 ta davra suhbatlari o'tkazilgan. Ular qatorida Toshkent Axborot texnologiyalari universitetida Yunusobod tumani hokimiyati, "Ijtimoiy fikr" Markazi, "Yoshlar Ittifoqi" kengashi hamkorlikda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini rivojlantirish - davra talabi" mavzuida o'tkazilgan ilmiy-amaliy seminarda ham mahallalarning bugungi kundagi o'rni, ushbu tizimni yanada rivojlantirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z yuritilgan [11. № 73].

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" 34-maqsadida hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish;

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida hududlarning "o'sish nuqtalari"dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obektlarini qurishga alohida e'tibor qaratish; Toshkent shahrida oqova suvini tozalash tizimini shahar hududidan tashqariga chiqarib, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi inshootlarni barpo etish; 36-maqsadida Toshkent shahri va hududlarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish;

Strategiyaning 80-maqsadida esa Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish, ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish, 2022 yilning "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida esa "Ilg'or loyihalar va injiniring markazi"ni tashkil etish bo'yicha Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish;

Toshkent shahrining har bir tumanida "Innovatsiya va texnologiya markazlari" faoliyatini yo'lga qo'yish; Toshkent shahridan hududidan oqib o'tadigan "Salar", "Qorasuv", "Katta Kalkauz", "Kalkauz", "Bo'zsuv", "Bo'rija" va "Pul-emas" kanallari qirg'oq bo'ylarida obodonlashtirish chora-tadbirlarni amalga oshirish, kanallarning qirg'oqlarini mustahkamlash, ko'kalamzorlashtirish va sayilgohlar tashkil etish belgilangan [12 № 22 (544).]

"Obod mahalla" dasturi doirasida shahar aholisi va hududining kengayishi, ko'p qavatli uylar va yangi dahalarning tashkil topishi, doimiy va vaqtinchalik ish joylarining mavjudligi kabi omillar aholi migratsiyasiga ta'sir ko'rsatayotganligini qayd etish o'rinli. Masalan, birgina 2019 yilning 10 oyi davomida Toshkent shahri bo'yicha jami 32 ming 380 nafar, Toshkent viloyati bo'yicha 7 ming 462 nafar fuqaro doimiy propiska qilingan. Jami 173 ming 140 nafar, shundan Toshkent shahri bo'yicha 145 ming 854 nafar, Toshkent viloyati bo'yicha 27 ming 286 nafar fuqaro vaqtincha hisobga olingan [13. <https>]. Bu respublika bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichdir. O'z o'zidan ayonki, migratsiya masalasi va ijtimoiy demografik muammoni yechishda, aholi turmush tarzini yaxshilashda va uy-joy bilan t'minlash ular turmush tarzini yaxshilashning muhim ko'rstatkichidir.

Xulosa qilib aytganda, Toshkent shahri mahallalarida "Obod mahalla" davlat dasturini amalga oshirish, yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yuzaga kelganligini, bunda mahallalarni obodonlashtirish, aholi ijtimoiy turmush tarzini yuksaltirish, mahallalarda xizmat

ko'rsatish sohalari taraqiy ettirish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish masalalari o'tgan tarixiy davrda dolzarb muammolardan biri bo'lganligini tasdiqladi. Demak, mahallalarda aholi turmush tarzini yuksaltirish uchun ular bandligini ta'minlash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, uni samarali amalga oshirish ishlari zarur ehtiyojlarimizdan biridir.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – Toshkent, 2019. – B. 18.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – Toshkent, 2019. – B. 18.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – Toshkent, 2019. – B. 19.
4. Raxmonov X. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy institutlar faoliyati tarixi (Navoiy viloyati misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. –T., 2021.-B. 70.
5. Toshkent shahar Nuroniylar jamg'armasi joriy arxivi materiallari.
6. Toshkent shahar Nuroniylar jamg'armasi joriy arxivi materiallari.
7. <https://xs.uz/uzkr/post/2022-2025-jillarda-ozbekistonda-zhamoat-khavfsizligini-taminlash-tizimini-rivozhlantirish-strategiyasi-tasdiqlandi>
8. Poytaxt va Toshkent viloyati tumanlari hududlarini o'zgartirish masalalari ko'rib chiqildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 5 avgust kuni Toshkent shahri va Toshkent viloyatining o'zaro chegaradosh hududlarini o'zgartirish bo'yicha tayyorlangan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi. // Xalq so'zi. 2020 yil 6 avgust, №164 (7666)
9. "Toshkent oqshomi" gazetasi, 2018, 10 yanvar.
10. Suvonov L. Islohotlar ertangi kunga xavotir emas, ishonch bilan qarashga xizmat qilmoqda. // Yangi O'zbekiston. 2021 yil. 13 aprel, № 73.
11. Suvonov L. Islohotlar ertangi kunga xavotir emas, ishonch bilan qarashga xizmat qilmoqda. // Yangi O'zbekiston. 2021 yil. 13 aprel, № 73.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // Yangi O'zbekiston. 2022 yil, 1 fevral. – № 22 (544).
13. <https://www.xabar.uz/huquq/toshkent-shahriga-10-oyda-32-380-nafar-fuqaro>



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5/8 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).